

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ABDUVALIYEVA GULCHEXRA MAMADJON QIZI

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI O‘QISH SAMARADORLIGINI
MODULLI TA‘LIM SHAROITIDA OSHIRUVCHI INTERFAOL
METODLARNI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta‘lim)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan-2025

UO‘K: 372.42:371.3

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Abduvaliyeva Gulchexra Mamadjon qizi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘qish samaradorligini modulli ta‘lim sharoitida oshiruvchi interfaol metodlarni takomillashtirish 3

Абдувалиева Гульчехра Мамаджоновна

Совершенствование интерактивных методов, повышающих эффективность чтения учащихся начальных классов в условиях модульного обучения 25

Abduvaliyeva Gulchekhra Mamadjon kizi

Improving interactive methods that enhance the reading efficiency of primary school students in a modular education environment 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati.

Список опубликованных работ

List of published works 54

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ABDUVALIYEVA GULCHEXRA MAMADJON QIZI

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI O‘QISH SAMARADORLIGINI
MODULLI TA‘LIM SHAROITIDA OSHIRUVCHI INTERFAOL
METODLARNI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta‘lim)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan- 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped8571 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.namspi.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sobirova Mahbuba Yusupdjanovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Erkabayeva Nigora Shermatovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Lutfullayev Pulatxon Muxibullayevich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
professor

Yetakchi tashkilot:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "6" "12" soat 11⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy, Tel.: (998) 69 211-11-69; faks: (998) 69 211-11-69; e-mail: info@namspi.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (480 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy, Tel.: (998) 69-211-11-69.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "21" "11" kuni tarqatildi.

(2025-yil "21" "11" daqi "22" -raqamli reyestr bayonnomasi).



M.R.Qodirxonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

S.X.Mutalov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

M.A.Asqarova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'limdagi global tendensiyalar bugungi kunda ta'lim sohasida interfaol metodlar va modulli ta'lim tizimlari keng qo'llanilmoqda. Bu yondashuvlar o'quvchilarni mustaqil fikrlash, ijodkorlik va jamoa bilan ishlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Modulli ta'lim sharoitida interfaol metodlar qo'llanilishi boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim olish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning asosiy bilim va ko'nikmalari shakllanadi. Ushbu bosqichda o'quvchilarga ta'lim berish metodikasining to'g'ri tanlanishi ularning kelajakdagi akademik yutuqlari va shaxsiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Modulli ta'lim tizimi o'quvchilarga individual yondashuv va o'zlashtirish darajasiga mos ta'lim berish imkonini beradi. Bu tizim o'quvchilarni o'z-o'zidan ta'lim olishga undaydi, ularning mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantiradi va shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashadi.

Dunyoda bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lim jarayonida keng qo'llanilmoqda. AKT vositalari yordamida interfaol darslarni tashkil qilish, virtual laboratoriyalar va boshqa raqamli resurslardan foydalanish orqali o'quvchilarni ta'lim jarayoniga yanada faol jalb etish mumkin. Interfaol ta'lim metodlari o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi va bu jarayonda turli xil interfaol vositalar, texnologiyalar va metodlar qo'llaniladi. Masalan, elektron kitoblar orqali ta'lim berish o'quvchilarning o'qish qobiliyatini oshirishda samarali usul bo'lib, bu kitoblar bolalar o'rtasida lug'at boyligini oshirish va hikoyalarni tushunish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, jamoaviy va interfaol o'qitish usullari o'quvchilarni hamkorlikda ishlash, muammolarni hal qilish va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu usullar ko'pincha haqiqiy dunyo muammolariga asoslangan bo'lib, o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga undaydi va ularning muammolarni hal qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilariga modulli ta'lim sharoitida interfaol metodlar yordamida ta'lim berish nafaqat ularning akademik muvaffaqiyatlarini oshiradi, balki shaxsiy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi. Shu sababli ushbu mavzu dolzarb va zarur hisoblanadi, chunki u ta'lim sifatini oshirish va kelajak avlodning bilimdon, ijodkor va jamiyatga foydali shaxslar bo'lib yetishishiga yordam beradi. O'quv jarayoniga interfaol elektron kitoblarni kiritish o'quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ushbu kitoblar foydalanuvchilar o'rtasida virtual muhitda muloqot qilish imkoniyatini ham taqdim etadi, bu esa o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularning o'zlashtirish darajasini ko'taradi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda "Yoshlarda bolalik chog'idan o'qishga, kitobga mehr uyg'otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish ularning hayot yo'llarida mustahkam zamin bo'ladi"¹.

¹ <https://xs.uz/uz/post/prezident-yoshlar-manaviyatini-yuksaltirish-ularning-bosh-vaqtini-mazmunli-tashkil-etish-bojicha-muhim-vazifalarni-belgilab-berdi>

O'quvchilarning qobiliyatlarini to'g'ri baholash va ularga mos ta'lim yondashuvlarini qo'llash asnosida yuqori sifatli ma'lumotlar asosida o'quvchilarning hozirgi qobiliyatlari baholanadi va ularning ehtiyojlariga mos ravishda o'qitish usullari tanlanadi. Bu jarayonda o'qituvchi tezkor yordam ko'rsatishi va o'quvchilarni faol o'qish jarayoniga jalb qilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish samaradorligini modulli ta'lim sharoitida oshiruvchi interfaol metodlarni o'rgangan M.Asqarova, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, M.Mirsolieva, M.To'raboyeva, Z.Xudayqulova, M.Haydarova, M.Rahimova, I.Mo'minov, M.Safarova, D.Yuldasheva, S.Tilavoldiyev, M.Sobirova, J.J.Jalolov, Q.Nazarov, S.Mirhayitova, M.Akbarova, S.Qambarova² kabi olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini

² Asqarova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy). ...diss. – Namangan, 2020. – B. 128.; Muslimov N.A., Usmonboeva M., Mirsolieva M. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2016. – 87 b.; To'raboyeva M. Uzviylikni ta'minlash asosida tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlar tizimi; pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy). ...diss. – Namangan, 2020. – B. 128.; Xudayqulova Z. "Boshlang'ich sinflarni o'qitishda interfaol metodlar" Ustozlar uchun, 44-jild, 2-qism, 2023. – B. 217–224. <https://pedagoglar.uz/index.php/01/article/view/4412>; Haydarova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish darslari orqali milliy odob ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi tizimi; pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy). ...diss. – Namangan, 2022.-B.48; Raximova Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish texnologiyasi tizimi; pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy). ...diss. – Namangan, 2020. – B. 89; Mo'minov I. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari" Innovative Development in Educational Activities, 2-jild, 8-son, 294–302-betlar. 2023-yil. <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1169>; Safarova M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida interfaol metodlardan foydalanish" Tadqiqotlar.uz, 41-jild, 1-qism, – B. 164–165. 2024-yil. <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/4058>; Yuldasheva D. "Boshlang'ich ta'lim ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish" Ilm Fan Xabarnomasi jurnali, 2024 1-jild, 2-son; Tilavoldiyeva S. "Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi va ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish" Ilmiy Tadqiqotlar va Ularning Yechimlari Jurnali, 1-jild, 2-son, 2024-y. – B. 119–121.

² Sobirova M. Modulli ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. – Namangan: ARJUMAND MEDIA, 2021. – B.200; Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English language teaching methodology. –Toshkent : Science and Technology publishing house, 2015. – B.21; Nazarov Q. Zamonaviy raqamli axborot telekommunikatsiya va

amalgama oshirishgan. Ushbu tadqiqotlarda modulli ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan interfaol metodlarning turli yo'nalishlari va tamoyillari o'rganilgan. Shuningdek, interfaol metodlarning o'quv jarayonida qo'llanilishi, modulli ta'lim asosida o'qish darslari mazmuniga qo'yiladigan talablar ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) olimlaridan G.K.Selevko, V.L.Bernshteyn, N.Bordovsky, N.Algazina va N.Persevalarning tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona (rus) tili darslari samaradorligini oshirish, grammatik tushunchalarni anglash va o'zlashtirishda hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan foydalanish masalalari o'rganilgan³. Mazkur tadqiqotlar natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish samaradorligini modulli ta'lim sharoitida oshirishga yo'naltirilgan interfaol metodlarning ahamiyatini tasdiqlaydi. Ayniqsa, hamkorlikda o'qitish texnologiyalari modulli ta'limning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, o'quvchilarning o'zaro muloqotga kirishishi, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi va mustaqil o'rganish jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi.

Xorijiy davlatlarda M.Schimidt, T.Bargel, D.Bonjean, I.V.Maslov, E.A.Tishenko, A.S.Andriyenko, S.Marsin⁴ tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda integrativ ta'lim texnologiyalarini qo'llashning afzalliklari va imkoniyatlari keng yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda pedagog kadrlarni tayyorlashning turli jihatlari, jumladan, innovatsion va pedagogik faoliyatga tayyorlash, ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari hamda integrativ ta'lim muhiti yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Mazkur ilmiy yondashuvlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish samaradorligini oshirishda modulli ta'lim va interfaol metodlarning ahamiyatini ochib berishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, modulli ta'lim sharoitida integrativ ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini moslashtirishga imkon beradi. Interfaol metodlarning tatbiqi esa ta'lim jarayonida faollik, mustaqil

kompyuter texnologiyalarini joriy etish vazifalari// O'zbekiston jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida. –T.: Akademiya. 2015. – B.59; Mirhayitova S., Akbarova M. Modulli texnologiya. Boshlang'ich ta'lim tizimi uchun qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi. 2004. – B. 16-18; Qambarova S.I. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish texnologiyasi: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ...diss. Avtoref. – Samarqand, 2019. – B.52.

³ Селевко Г. К. Современные образовательные технологии. Учебное пособие. – Москва. 1998. – 72 с.; Frantsuzova O.E. Shaxsning emotsional kompetensiyasi. – Toshkent: Fan, 2016, 114-117 b; Bernshteyn V.L. Development of student's ability to self-education in English classes interactive-science. Scientific cooperation center "Interactive plus", 2017. – P.5; Нина Владимировна Бордовская. Педагогика. Учебник для вузов. - Москва: Юнити-дана, 2006. — 182 с.

⁴ Schimidt M., Bargel T. The Bologna process as a challenge for students. V- International workshop. – Germany; Konstanz University, 2011. – 160 b.; Bonjean D.The Bologna process and European Higher education area. – Rome: Education and training-European Commission, 2020. – P. 32; Маслов И.В.Методика информационной подготовки юристов с применением кредитно-модульной системы/кандидат педагогических наук. – Ростов на-Дону, 2010. – 170с; Тищенко Е. А. Организация системы кредитного обучения в техническом вузе/кандидат педагогических наук. – Ростов-на-Дону, 2007. – 276 с; Андриенко, А.С.Развитие иноязычной профессиональной коммуникативной компетентности студентов технического вуза: на основе кредитно модульной технологии обучения/кандидат педагогических наук. – Ростов-на-Дону, 2007. – 282 с; Marsin. S. Reform trends in Europe's higher education programmes as an exemplification of the bologna process after the Rome 2020 Ministerial Conferenc, 2023. – 174.

fikrlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari keng ko'rib chiqilib, ular boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun modulli ta'lim jarayonida interfaol muhit yaratishda muhim omil ekanligi ta'kidlanadi. Ushbu texnologiyalar o'quv jarayonining moslashuvchanligini ta'minlab, o'quvchilarning bilim olish faoliyatini yanada samarali tashkil etishga imkon yaratadi.

Dissertatsiya ishining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining B.M-24 "Pedagogik ta'lim va tarbiya transformatsiyasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari" mavzusi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish samaradorligini modulli ta'lim sharoitida oshiruvchi interfaol metodlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish samaradorligini modulli ta'lim sharoitida oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

modulli ta'lim tizimining asosiy tamoyillari, o'qitish usullari va yondashuvlarini aniqlash;

modulli ta'lim muhitidagi o'qish samaradorligini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirish;

modulli ta'lim sharoitida o'qish samaradorligini interfaol metodlar asosida oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berish.

Tadqiqotning obykti sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish samaradorligini modulli ta'lim sharoitida oshiruvchi interfaol metodlarni takomillashtirishdan foydalanish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Namangan, Andijon va Farg'ona viloyatlarining 779 boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmeti boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish samaradorligini modulli ta'lim sharoitida oshiruvchi interfaol metodlarni takomillashtirishdan foydalanish mazmuni va metodik shart-sharoitlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keluvchi muammoga doir falsafiy, psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlar qiyosiy tahlil qilindi. DTS, o'quv dasturlari, darslik va ta'limga oid hujjatlar o'rganildi; sotsiologik-pedagogik (kuzatish, suhbat, anketa, so'rovnoma); pedagogik eksperiment, matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish samaradorligini modulli ta'lim sharoitida oshirishga doir interfaol metodlarning didaktik xususiyatlari (o'quvchi shaxsiga yo'nalganlik, o'quv-bilish faoliyatining boshqarish, hamkorlik, ijodkorlik) o'quv fani mavzusi, tayanch tushuncha va bilimlar, ko'nikma, malakalar kompetensiyalarni ta'lim maqsadlari (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) bilan ichki integratsiyasining dinamikligini ta'minlash asosida aniqlashtirilgan;

modulli ta'lim tizimining asosiy tamoyillari, o'qitish usullari va yondashuvlari aniqlanib, bu tamoyillarni boshlang'ich ta'limga tatbiq etishning samaradorligi o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos modullarni yaratish va ularni qo'llash bo'yicha interfaol metodlar ("Kitobni och", "Siniq tuxum", "Soyabon", "Aql charxi", "Hikoya", "Basketbol", "Pazl", "Quvnoq delfinchalar", "Insert", "Rol o'ynash") asosida takomillashtirilgan;

modulli ta'lim muhitidagi o'qish samaradorligini media texnologiyalarning yangi imkoniyatlari (o'qish samaradorligini baholash va nazorat qilish) o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash, tahliliy qobiliyatlarini rivojlantirish, yangi o'lchovlar va baholash tizimi, o'qish darslarini yanada qiziqarli va motivatsion formatda o'tkazilishini ta'minlash asosida aniqlashtirilgan;

modulli ta'lim sharoitida interfaol metodlari orqali o'qish samaradorligini oshirishga asoslangan yangi motivatsion strategiyalar majmui, ilhomlantiruvchi o'yinlar, ta'limiy va diagnostik dasturlar (boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish kompetensiyasini aniqlash testi) har bir o'quvchi uchun individual o'quv rejalar, baholashning yangi tizimlari asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o'z aksini topgan:

modulli ta'lim tizimi ta'lim jarayoniga tatbiq etilib, uning o'quvchilar o'qish samaradorligiga ta'siri o'rganib chiqilgan;

modulli ta'lim tizimining asosiy tamoyillari aniqlanib, bu tamoyillarni boshlang'ich ta'limga tatbiq etishning samaradorligi o'rganib chiqilgan;

modulli ta'lim muhitida o'qish samaradorligini oshirishda mediatexnologiyalarni qo'llashning yangi imkoniyatlari kengaytirilgan;

modulli ta'lim sharoitida o'qish samaradorligini interfaol metodlar asosida oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar hamda yangi metodologik yondashuvlar ishlab chiqilgan;

"Boshlang'ich sinflar o'quvchilari o'qish samaradorligini oshirish" nomli elektron uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasining Dasturiy mahsulotlar davlat reyestrda 2025-yil, 27-yanvarda ro'yxatdan o'tkazilgan № DGU 47111 raqamli guvohnomasi).

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuvlar, usullar va nazariy ma'lumotlar ishonchli manbalardan olinganligi; amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijalarining samaradorligi; tanlangan ilmiy tadqiqot metod, shakl va vositalarining mavzuga mosligi; olingan natijalarning matematik-statistik tahlili natijalarining ko'rsatkich darajasi yuqoriligi; tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida taqqoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish samaradorligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari ishlab chiqilganligi, modulli ta'lim asosida o'quvchilarga mashg'ulotlarni tashkil etishning asosiy tamoyillarining tizimlashtirilganligi, interfaol metodlar asosida o'qish darslarini tashkil etishning samaradorligini aniqlash mezonlarining ishlab chiqilganligi, modulli ta'lim muhitida mediatexnologiyalarni boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish samaradorligini

oshirishda qo'llashning yangi metodologik yondashuvlari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati interfaol metodlarning modulli ta'lim tizimidagi o'rnini aniqlash, ularning didaktik asoslarini rivojlantirish va o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga xizmat qiladi. Olingan natijalar pedagogik innovatsiyalarni integratsiyalash, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda boshlang'ich ta'limda o'qish samaradorligini oshirish bo'yicha yangi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Ta'lim jarayoniga interfaol metodlarni keng joriy etish, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qish darslarining samaradorligini oshirish, o'qituvchilar malakasini oshirish va yangi ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin. Pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish, uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va o'quvchilarning o'qish madaniyatini shakllantirishda tadqiqot natijalari muhim o'rin tutadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

“Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish samaradorligini modulli ta'lim sharoitida oshiruvchi interfaol metodlarni takomillashtirish” bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish samaradorligini modulli ta'lim sharoitida oshirishga doir interfaol metodlarning didaktik xususiyatlari (o'quvchi shaxsiga yo'nalganlik, o'quv-bilish faoliyatining boshqarish, hamkorlik, ijodkorlik) o'quv fani mavzusi, tayanch tushuncha va bilimlar, ko'nikma, malakalar kompetensiyalarni ta'lim maqsadlari (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) bilan ichki integratsiyasining dinamikligini ta'minlash asosida aniqlashtirishga oid amaliy va metodik takliflar “Boshlang'ich sinflar o'quvchilari o'qish samaradorligini oshirish” nomli uslubiy qo'llanmaning mazmuniga singdirilgan (Respublika ta'lim markazining 2025-yil 3-maydagi 01/11-6-318-son ma'lumotnomasi). Natijada, boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional o'qish savodxonligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini aniqlashtirishga erishilgan;

modulli ta'lim tizimining asosiy tamoyillari, o'qitish usullari va yondashuvlari aniqlanib, bu tamoyillarni boshlang'ich ta'limga tatbiq etishning samaradorligi o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos modullarni yaratish va ularni qo'llash bo'yicha interfaol metodlar (“Kitobni och”, “Siniq tuxum”, “Soyabon”, “Aql charxi”, “Hikoya”, “Basketbol”, “Pazl”, “Quvnoq delfinchalar”, “Insert”, “Rol o'ynash”) asosida takomillashtirishga doir takliflardan foydalanilgan (Respublika ta'lim markazining 2025-yil 3-maydagi 01/11-6-318-son ma'lumotnomasi). Natijada, boshlang'ich ta'lim tizimida dars jarayonlarini samarali tashkil etish, o'qish madaniyatini shakllantirish hamda o'quvchilarning bilim olish faolligini oshirishga qaratilgan real ta'lim muhitida qo'llanishi natijasida ta'lim sifatini oshirishga erishilgan;

modulli ta'lim muhitidagi o'qish samaradorligini media texnologiyalarning yangi imkoniyatlari (o'qish samaradorligini baholash va nazorat qilish) o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash, tahliliy qobiliyatlarini rivojlantirish, yangi o'lchovlar va baholash tizimi, o'qish darslarini yanada qiziqarli va motivatsion formatda o'tkazilishini ta'minlash asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalardan O'zMETRK “O'zbekiston-24” ijodiy birlashmasi “O'zbekiston”

teleradiokanali tomonidan tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot”, “Bolalar va biz” nomli dasturlarning 2025-yil fevral va aprel oylaridagi sonlari dastur va ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 21-apreldagi 05-09-511-son ma’lumotnomasi). Natijada, modulli ta’limda mediatexnologiyalar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi, tahliliy qobiliyati va funksional savodxonligini rivojlantirishga erishilgan;

modulli ta’lim sharoitida interfaol metodlari orqali o‘qish samaradorligini oshirishga asoslangan yangi motivatsion strategiyalar majmui, ilhomlantiruvchi o‘yinlar, ta’limiy va diagnostik dasturlar (boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish kompetensiyasini aniqlash testi) har bir o‘quvchi uchun individual o‘quv rejalar, baholashning yangi tizimlari asosida takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalardan 2023-2024-yillarda bajarilgan “ERASMUS+ Capacity Building Project 101129076 EMPOWER:Women Entrepreneurship, Empowerment, employability and self-confidence” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutining 5-iyun 2025-yildagi 1280-03-son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda o‘qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish va ta’lim sifati ko‘rsatkichlarini yaxshilashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta uslubiy qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, ishning umumiy hajmi 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, ishning maqsadi, vazifalari va obykti hamda predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘qish samaradorligini oshirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, unda hozirgi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘qish samaradorligini oshirish masalasi global va milliy ta’lim tizimining dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ta’limda interaktiv yondashuvlarni qo‘llash, modulli ta’lim texnologiyalari va media resurslardan foydalanish orqali o‘quv jarayonining

sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish samaradorligini oshirishda innovatsion usullarning qo'llanilishi, milliy va xalqaro tajribalarning o'zaro uyg'unlashtirilgan yondashuvlarini o'rganishga qaratilgan.

Ta'limning yangi modelini amaliyotga tatbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan bog'liq. Shuning uchun ham Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida "O'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash" uning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Ta'lim taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuch – bu o'zida didaktik masalalar va ta'lim texnologiyalarini mujassamlashtirgan pedagogik tizim hisoblanadi. Ta'lim texnologiyasining muvaffaqiyatli loyihalanishi va yakuniy natijaning kafolatlanishi o'qituvchining didaktik masalalar mohiyatini anglab yetish darajasiga, ularni to'g'ri belgilash, tanlash va samarali qo'llay olishga bog'liqdir.

Barchaga ma'lumki, zamonaviy ta'lim o'quvchilar uchun informativ, qiziqarli va maroqli bo'lsa, kutilayotgan o'qitish maqsadlariga erishish mumkin. Ta'lim oluvchilarni faqatgina davr talabiga javob bera oladigan faol o'qitish usullari, shakllari, vositalarini qo'llash, innovatsion yondashuv va hamkorlik orqali motivlashtirish mumkin. Shu bois ilg'or pedagog olimlar, ijodkor professor-o'qituvchilar va tajribali mutaxassislar ilmiy asoslangan ta'lim texnologiyalarini o'z amaliyotlariga keng tatbiq etishga harakat qilmoqdalar desak adashmagan bo'lamiz. Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda didaktik o'yinlarni ham o'rni katta. "Didaktik o'yinlarni fikrning audio-vizual, ekstralingvistik va emotsional ta'sir vositalari orqali ifodalanishi muloqot jarayonining tabiiy sharoitda yuz berishini ta'minlaydi buni sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkindir"⁵. Bu o'yinning afzalliklari va qulayliklari juda ko'pdir. Psixologik jihatdan tadqiqot olimlarining olgan natijasiga ko'ra "Inson eshitish orqali 40% ga faol o'zlashtiradi; ko'rish orqali 50% ga; bir vaqtning o'zida ko'rsa va eshitsa, bunday axborot 70-75% xotirada qoladi. Agar inson faoliyati mustaqil ravishda amalga oshirilsa, olingan ma'lumotlar 92% ga yodda qoladi"⁶.

O'qish darsini qay darajada o'tish o'rganilayotgan yangi bilimni o'quvchiga yetkazib bera olish o'qituvchidan yangi g'oyalar talab qiladi. Takroriy o'qish o'quvchilar bir matnni bir necha marta o'qishlari tavsiya etiladi. Bu usul o'qish tezligi va tushunishni oshirishga yordam beradi. Har bir o'qishdan keyin matnni qahramonlarini qat'iy harakatlarini muhokama qilish va asosiy tafsilotlarni aniqlash o'quvchilarni matnni ongli tushunishga yordam beradi. Audiokitoblarni tinglash ham o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini yaxshilashda samarali hisoblanadi. Ayniqsa, disleksiya bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelayotgan o'quvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin. Bu usul o'quvchilarga to'g'ri talaffuz va ifodali o'qishni o'rganishga yordam beradi. O'quvchi o'qiyotgan kitobiga qiziqsa o'qish samaradorligi oshib boradi.

O'qish qobiliyati boshlang'ich va o'rta ta'limning asosiy elementlaridan biri sifatida qaraladi. Malakali o'quvchilar matndan ma'no chiqarish uchun yuqori

⁵ Ko'chiboyev A.K. Chet tillar o'qitishning amaliy metodikasi o'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand, 2012.– 91 b.

⁶ Варенина Л.П. Технология игры Актуальные проблемы государственных и естественных наук. – 2015. – С. 66-68

darajadagi fikrlash ko'nikmalaridan foydalanadilar, aksincha kam malakali o'quvchilar esa matndan faqatgina aniq yoki faktik ma'lumotlarni olish bilan cheklanadilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi o'qiydigan kitoblari rang-barang rasmlarga to'la bo'lsa, o'quvchining yoshiga mos, qiziqishlariga qarab kitob tanlansa o'quvchida o'qish savodxonligi oshadi. N.A. Muslimov o'z tadqiqotlarida ta'lim muassasalarida dars jarayonini tashkil etishda o'quvchilarning yosh, qiziqish va layoqatini inobatga olish muhimligini ta'kidlagan⁷.

O'qituvchilar o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularning qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan o'qish materiallarini tanlashlari lozim. Ota-onalar bilan hamkorlik o'qish jarayonini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'z farzandlarini o'qishga rag'batlantirishda yordam beradi. Umuman olganda, o'qish samaradorligini oshirish uchun kompleks yondashuv va doimiy ravishda o'zgaruvchan ta'lim metodlarini qo'llash zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish samaradorligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, o'qish jarayonida interfaol metodlarning samarali qo'llanilishi va modulli ta'limni integratsiya qilishning muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu ishlar doirasida o'qish samaradorligini oshirish uchun o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalar, ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar va metodologiyalar bilan boyitishning ahamiyati o'rganildi.

Ta'lim jarayonida faol o'qitish metodlarini tanlash. Ta'lim texnologiya elementlarini tanlash va amalga oshirishda ta'lim oluvchilarning o'quv bilish faoliyatlarini e'tiborga olish lozim. Bu ish usuli o'quvchilarni bir-biriga va o'zida talabchan bo'lishga, xatolarni o'z vaqtida bartaraf etishga, ishni tanqidiy baholay bilishga o'rgatadi.

Modulli ta'lim va interfaol usullar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirish mezonlari hamda metodikalarini ishlab chiqish, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarning o'qishdagi faolligini oshiradi, o'zlashtirish jarayonini yengillashtiradi va ularning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, modulli ta'limni o'qish jarayoniga integratsiya qilish, o'quvchilarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish va o'z-o'zini boshqarish imkoniyatlarini yaratadi.

Modulli ta'lim asosida o'quvchilarga mashg'ulotlarni tashkil etishning asosiy tamoyillari muhim pedagogik prinsiplarga asoslanadi. Ushbu tamoyillar o'quv jarayonini sifatli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Modulli ta'lim o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishga yordam beradi. Har bir modul, o'quvchilarning individual qobiliyatlari va qiziqishlariga mos ravishda tuziladi, bu esa ularning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi. Interfaol usullardan foydalanish esa o'quv jarayonini yanada faollashtiradi. O'quvchilar faol

⁷Muslimov N.A., Usmonboeva M., Mirsolieva M. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2016. – 87 b.

ishtirok etishlari uchun turli xil vazifalar va o‘yinlar taklif etiladi, bu esa bilimni mustahkamlashga yordam beradi.

Dars mashg‘ulotlarida mazmun va mohiyatdan kelib chiqib, shuningdek, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda interfaol metodlarni qo‘llash dars jarayonining samaradorligini oshirishga va rejalashtirilgan maqsadlarga erishishga ko‘maklashadi. Ayniqsa, o‘qish mashg‘ulotlarida interfaol usullardan foydalanish orqali turli guruhlar shakllantirib, ularda interfaol metodlarni qo‘llash natijasida o‘quvchilar matn yoki hikoyaning mazmunini tezroq va osonroq tushunib olishlari mumkin. Bu esa o‘qituvchiga ko‘zlangan natijaga qisqa fursat ichida erishish imkonini beradi. Chunki doimiy o‘qib kelinayotgan an’anaviy darslardan farqli o‘laroq, guruhlarda interfaol metodlardan foydalanib o‘tilgan dars mazmunli va tushunarli hisoblanadi. O‘quvchilar tomonidan iliq qarshi olinadi. Bu orqali o‘quvchilarning bilim olish darajasi va o‘qish tezligi yanada yaxshilanadi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘qish samaradorligini modulli ta’lim sharoitida oshiruvchi interfaol metodlar mazmuni”** deb nomlangan. Mazkur bobda zamonaviy ta’lim metodlari orasida modulli ta’lim tizimi va mediatexnologiyalarning o‘quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish, ularning analitik fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Modulli ta’lim tizimi o‘quv jarayonini strukturaviy va sistematik tarzda tashkil etishga imkon bayon qilingan.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘z-o‘zini anglash va rivojlantirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlar keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, modulli ta’lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan darslarda bu metodlarning qo‘llanilishi ta’lim samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Tajriba asosida aniqlanishicha, modulli ta’limda interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarda quyidagi ijobiy natijalarni yuzaga keltiradi:

1. Matn mazmunini tez anglash;
2. O‘rganilgan materialni mustaqil tahlil qilish;
3. Savol-javoblar orqali fikr almashish;
4. Kreativ yondashuvni rivojlantirish;
5. Mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarining shakllanishi.


Bunda o‘qituvchining roli boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi sifatida namoyon bo‘lib, asosiy e’tibor o‘quvchining mustaqil bilim olishi va faol ishtirokiga qaratiladi.

Quvnoq delfinchalar metodi

O‘quvchilarni dars jarayoniga qiziqtirish, ular orasida jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish va mavzularni o‘zlashtirishni qiziqarli tarzda oshirish (1-rasmga qarang).

O‘quvchilar kichik guruhlarga (delfincha jamoalari) bo‘linadi. Har bir guruh o‘z delfincha jamoasiga mos nom va ramz tanlaydi (masalan, “Muz yorarlar” yoki “Muz ustidagi shiddat”). O‘quvchilarga turli topshiriqlar (savollar, masalalar, testlar yoki ijodiy mashqlar) beriladi. Ular buni guruh bo‘lib muhokama qiladi va

yakuniy yechimni taqdim etadi. Jarayon davomida har bir to'g'ri javob uchun "Quvnoq delfinchalar" bittadan koptok oshiradilar shu shaklda ball to'planadi. Eng ko'p koptok yig'gan guruh g'olib bo'ladi.




1-rasm. Quvnoq delfinchalar metodining vositalari

Modulli ta'lim muhitida o'zlashtirish darajasiga qarab individual topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va loyihalash metodlaridan foydalanish orqali dars jarayoni yanada jonli va mazmunli kechadi. Interfaol metodlar yordamida tashkil etilgan o'qish darslari o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga, tanqidiy yondashuviga va o'z fikrini asoslab bera olishiga sharoit yaratadi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish bilan birga, o'quvchilarning shaxsiy rivojiga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish samaradorligini modulli ta'lim sharoitida interfaol metodlarni takomillashtirishning quyidagi komponentlari aniqlandi: nazariyaning amaliyot bilan uyg'unligini ta'minlash, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish samaradorligini modulli talim sharoitida interfaol metodlarni o'zlashtirishning dolzarb muammolarini aniqlash va o'quvchilarga tushunchalarni yetkaza olish, o'qish samaradorligini modulli ta'lim sharoitida interfaol metodlarni rivojlantirish doirasida tajribalarga tayanish, o'qilgan asarlar bo'yicha savollar tuzish va javob topishga o'rgatish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va shular asosida xulosa chiqara olish, asar mazmuni va ahamiyatini tushunishni egallashlari kabilardan iborat. Shundan kelib chiqib, tadqiqot doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish samaradorligini modulli ta'lim sharoitida interfaol metodlarni takomillashtirishning metodik modelini ishlab chiqildi (2-rasmga qarang).

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, modulli ta'lim sharoitida interfaol metodlarni takomillashtirish modeli ta'lim jarayonining sifatini oshirish va o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu model ta'lim jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etishga asoslangan bo'lib, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini inobatga olgan holda moslashuvchan o'quv muhitini yaratadi. Interfaol metodlarning integratsiyasi esa o'quvchilarning faolligini oshirib, mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.



2-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish samaradorligini modulli ta'lim sharoitida oshiruvchi interfaol metodlar modeli

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'limda modulli ta'lim muhitida interfaol metodlarning o'rni va ahamiyati o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish va ularning analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Modulli ta'lim tizimi o'qitish jarayonini strukturaviy va sistematik tarzda tashkil etishga imkon beradi. Ushbu yondashuv o'quvchilarni mustaqil o'rganishga va shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirilgan o'qish rejasini amalga oshirishga yo'naltirilgan (1-jadvalga qarang).


1-jadval

“Poyga” metodi bosqichlari

Bosqich nomi	Amalga oshiriladigan ishlar
O'zing-top (Individual izlanish)	O'quvchiga kichik matn (modul asosidagi) va savollar beriladi. U avval matnni mustaqil o'qiydi, tushunchalarni belgilaydi.
O'rtoqqa-tushuntir (Juftlikda ishlash)	Har bir o'quvchi o'z tushunganini o'rtog'iga tushuntiradi, bir-birining fikrini tinglaydi, savollar beradi.
Jamoa-bilan-yakunla (Guruhli muhokama)	4-5 kishilik guruhlar shakllantiriladi. Guruhlar matn asosida savollarga javob beradi, asosiy g'oyani belgilaydi. Har bir guruhdan vakil chiqib xulosa qiladi.
Refleksiya va baholash	O'qituvchi o'quvchilarning faolligini baholaydi. O'quvchilar o'zlarini baholash varaqasini to'ldiradilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish samaradorligini oshirishda mediatexnologiyalarning roli ortib bormoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari va interaktiv platformalardan samarali foydalanish o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish samaradorligini oshirishda mediatexnologiyalarni qo'llashning nazariy va amaliy asoslari o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalar va interfaol metodlar o'quvchilarning o'qish tezligi, tushunish darajasi va mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi (3-rasmga qarang).

Multimediali darsliklar va elektron resurslar o'quvchilarga matnni nafaqat o'qish, balki uni eshitish va ko'rish imkonini beradi. Raqamli hikoyalar orqali matn mazmunini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Elektron doskalar va interaktiv ta'lim platformalari o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Gamifikatsiya elementlari (o'yin shaklidagi topshiriqlar) o'quvchilarning qiziqishini oshiradi. Raqamli resurslar har bir o'quvchining qobiliyatiga moslashtirilishi mumkin. Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalari har bir o'quvchining bilim darajasiga qarab tavsiyalar beradi.



3-rasm. Interfaol metodlar asosida dars o'tishning samaradorligi

Onlayn kutubxonalar va audio kitoblar mustaqil o'qish imkoniyatini kengaytiradi. O'quvchilar xohlagan vaqtda qo'shimcha materiallarni o'qish va tinglash imkoniyatiga ega bo'ladi. Matn bo'yicha interaktiv testlar va viktorinalar orqali o'qilgan materialni mustahkamlash osonlashadi. Virtual muhitda o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun infografikalar va sxemalar beriladi. Mediatexnologiyalar nafaqat o'qish, balki yozish, tinglash va gapirish ko'nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi. Multimedia materiallari orqali nutqni shakllantirishga va so'z boyligini oshirishga ko'maklashadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mediatexnologiyalar o'qish jarayonida o'quvchilarning diqqat-e'tiborini oshirish, matnni tushunish darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xususan, audio va videodarsliklar, virtual laboratoriyalar hamda interaktiv o'yinlar o'quvchilarning o'qish motivatsiyasini oshiradi va ularning fikrlash jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Modulli ta'lim tizimi bilan uyg'unlashgan holda mediatexnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish va differensial yondashuvni ta'minlash imkonini beradi. Bu esa o'quv jarayonini shaxsiylashtirish va o'zlashtirish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

